

UFQ ROMANIDA QAHRAMONLAR XARAKTERI EVOLYUTSIYASI**Samarqand davlat chet tillari instituti****Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti****3-bosqich talabasi****Ahmedova alina****alinaahmedova439@gmail.com**

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy muhit, urush davri voqealari hamda oilaviy munosabatlarning qahramonlar ruhiyati va ma'naviy kamolotiga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. Shuningdek, yozuvchining individual xarakter yaratish mahorati hamda badiiy-psixologik tasvir usullari ilmiy tahlil asosida baholanadi.

Kalit so'zlar: Said Ahmad, Ufq romani, qahramon, xarakter evolyutsiyasi, badiiy psixologizm, obraz, ma'naviy kamolot, urush, badiiy tahlil.

Annotation: The article highlights the influence of the social environment, the events of the wartime period, and family relations on the characters' psychology and spiritual maturity. Furthermore, the writer's skill in creating individual characters and methods of artistic-psychological depiction are evaluated on the basis of scientific analysis.

Key words: Said Ahmad, the novel "Ufq", character, character evolution, artistic psychologism, image, spiritual maturity, war, artistic analysis.

Аннотация: В статье освещается влияние социальной среды, событий военного периода, а также семейных отношений на психологию и духовное становление героев. Кроме того, на основе научного анализа оценивается мастерство писателя в создании индивидуальных характеров, а также методы художественно-психологического изображения.

Ключевые слова: Саид Ахмад, роман “Уфк”, герой, эволюция характера, художественный психологизм, образ, духовное становление, война, художественный анализ.

KIRISH.

O'zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri Said Ahmad o'z asarlarida inson ruhiyati, milliy qadriyatlar hamda hayotiy haqiqatlarni badiiy mahorat bilan aks ettirgan ijodkor hisoblanadi. Uning “Ufq” romani urush yillari va urushdan keyingi davr voqealarini yoritish bilan birga, inson xarakterining murakkab shakllanish jarayonini chuqur ochib beradi. Asardagi qahramonlar turli hayotiy sinovlar, ijtimoiy muammolar va ma'naviy tanlovlar orqali o'zgaradi, ularning dunyoqarashi hamda shaxsiy fazilatlari tobora takomillashib boradi. Qahramonlar xarakteri evolyutsiyasini o'rganish roman g'oyaviy mazmunini, yozuvchining badiiy mahoratini hamda inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu bois mazkur maqolada “Ufq” romanidagi asosiy qahramonlarning xarakter rivoji, ularning ruhiy kechinmalari va ma'naviy o'zgarishlari badiiy tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqot davomida qahramonlarning individual xususiyatlari hamda ularning asar kompozitsiyasidagi o'zni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

ASOSIY

QISM

Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi o'zbek romanchiligi taraqqiyotida muhim o'rin egallagan asarlardan biri bo'lib, unda urush va urushdan keyingi davr voqealari fonida inson taqdiri hamda xarakterlar taraqqiyoti badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan tasvirlangan [1; 2]. Asar uch qism — “Qirq besh kun”, “Hijron kunlari” va “Ufq bo'sag'asida”dan iborat bo'lib, unda xalqning front ortidagi mashaqqatli hayoti, insoniy munosabatlar hamda ma'naviy qadriyatlar o'z ifodasini topgan

[1;

2].

Romanda qahramonlar xarakterining shakllanishi hayotiy sinovlar bilan chambarchas

bog'liq holda tasvirlanadi. Yozuvchi qahramonlarni tayyor xarakter sifatida emas, balki voqea-hodisalar ta'sirida o'zgaruvchi va kamol topuvchi shaxs sifatida gavdalantiradi. Bu holat asarning realizm tamoyillariga asoslanganligini ko'rsatadi [3]. Ayniqsa, urushning og'ir sinovlari insonlarning ichki dunyosini ochib beruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Asardagi ijobiy qahramonlar mehnatsevarlik, vatanparvarlik, sabr-toqat va insonparvarlik kabi fazilatlari bilan ajralib turadi. Ular turli qiyinchiliklar va ma'naviy sinovlarni yengib o'tish jarayonida ruhiy jihatdan chiniquadi, jamiyat oldidagi mas'uliyatini chuqur anglaydi. Salbiy obrazlar esa manfaatparastlik, loqaydlik yoki ma'naviy zaiflik kabi xususiyatlari bilan ajralib turib, asardagi konfliktning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Shu tariqa yozuvchi qarama-qarshi xarakterlarni qiyosiy tasvirlash orqali asarning g'oyaviy mazmunini yanada teranlashtiradi [4]. Said Ahmad qahramonlar xarakterini ochishda badiiy psixologizm vositalaridan samarali foydalanadi. Dialoglar, ichki monologlar, portret tasviri hamda qahramonlarning ruhiy kechinmalarini tasvirlash orqali ularning ma'naviy olami yoritiladi [5]. Yozuvchining obraz yaratishdagi mahorati shundaki, qahramonlarning har bir qarori, hissiy holati va hayotga munosabati tabiiy ravishda ochib beriladi. Bu esa kitobxonning qahramonlar taqdiriga befarq bo'lmasligini ta'minlaydi. Asarda oila va jamiyat muhiti ham qahramonlar xakteri evolyutsiyasining muhim omili sifatida talqin etiladi. Kattalarning nasihati, oilaviy tarbiya, mehnat muhiti va jamoatchilik ta'siri qahramonlarning ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi. Yozuvchi inson kamolotida nafaqat shaxsiy fazilatlar, balki ijtimoiy muhit ham hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi [3]. Demak, "Ufq" romanida xarakterlar evolyutsiyasi asarning asosiy g'oyaviy-badiiy qatlamini tashkil etadi. Yozuvchi insonning haqiqiy qiyofasi murakkab hayotiy sinovlar jarayonida namoyon bo'lishini chuqur badiiy tahlil orqali ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

XULOSA

Said Ahmadning “Ufq” romani qahramonlar xarakterining shakllanishi va rivojlanishini yuksak badiiy mahorat bilan yoritgan asarlardan biridir. Asarda urush yillari va undan keyingi davr voqealari inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida tasvirlanadi. Qahramonlarning hayotiy sinovlar ta’sirida ma’naviy o’sishi, ijtimoiy mas’uliyatni anglab borishi hamda insoniy fazilatlarining namoyon bo’lishi asarning asosiy g’oyasini tashkil etadi. Said Ahmad badiiy psixologizm, dialog, portret va ichki monolog kabi tasvir vositalari orqali qahramonlar xarakteridagi o’zgarishlarni tabiiy va ishonarli ko’rsatgan. Shu jihatdan “Ufq” romani nafaqat o’zbek romanchiligining yirik namunasi, balki inson xakteri evolyutsiyasini o’rganishda muhim badiiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan

adabiyotlar:

1. Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: Sano-standart, 2015.
2. Ufq (trilogiya) // O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi materiallari va ochiq manbalar.
3. Karimov N. XX asr o’zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O’qituvchi, 2005.
4. Rahimov M. Said Ahmad ijodi va zamon haqiqatlari // O’zbek tili va adabiyoti jurnali. – 1981. – №4. – B. 27–35.
5. Dehqonova M., Abdurahimov M. Said Ahmadning obraz yaratish mahorati “Ufq” romani asosida // International Scientific Journal of Biruni. – 2022.